

Yusuffjonov Bahrom Yo'ldoshovich

*Ilmiy izlanuvchi, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
Xalqaro munosabatlar yo'nalishi 1- kurs talabasi.*

IJTIMOY DAVLAT BARPO ETISHDA XORIJIY DAVLATLAR TARJIBASI VA IJTIMOY DAVLAT TUSHUNCHASIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada ijtimoiy davlat barpo etishda xorijiy tajriba va bugungi kunda ijtimoiy davlat tushunchasiga beriladigan ta'riflarni tushuntirishga ilmiy jihatdan yondashilgan. Ijtimoiy davlat qurishdek vazifani o'z oldimizga qo'ygan ekanmiz, bu borada ilg'or g'arb jamiyatida hamda Amerikada XIX-XX asrlarda ro'y bergan voqealar, tendensiyalarni o'rganish shuningdek ijtimoiy davlat ta'rifining bugungi kundagi asl mohiyatini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bizga eng kerak jihat esa bu industrial davlatlarda ro'y bergan transformatsiyani o'rganish; ijtimoiy himoya, ijtimoiy adolat va davlat organlari ustudan nodavlat-notijorat tashkilotlarining (Jamoatchilik) nazorati; shuningdek globallashuv sharoitida ijtimoiy davlatga beriladigan kriteriyalarini chuqur o'rganishdir.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy davlat, globallashuv, ijtimoiy davlat mezonlari, industrial davlat, tendensiya, transformatsiya, jamoatchilik nazorati.

ABSTRACT: In this article, a scientific approach is taken to explain the foreign experience in establishing a social state and the definitions given to the concept of a social state today. As we have set ourselves the task of building a welfare state, in this regard, we should study the events and trends that took place in the advanced Western society and America in the 19th-20th centuries, as well as see the true essence of the definition of the welfare state today. What we need most is to study the transformation that took place in industrialized countries; control of non-governmental organizations (Community) over social protection, social justice and state bodies; as well as a deep study of the criteria given to the social state in the context of globalization.

Key words: Social state, globalization, social state criteria, industrial state, tendency, transformation, public control.

Kirish

Bu maqolaga qo'l urilishidan asosiy maqsad shundan iboratki, yangi konstitutsiyamizda belgilab qo'yilganidek, yurtimizda to'laqonli fuqorolik jamiyatini shakllantirish, uning faoliyatini yanada rivojlantirish, xalqimizning farovonligi, qashshoqlik, ishsizlik, bilimsizlik kabi sotsial muammolarning oldini olish hamda jamiyatimizda barqaror rivojlanishni ta'minlashning asosiy kaliti bo'lgan ijtimoiy davlat qurishning xorijiy modellarini o'rganish hamda ijtimoiy davlat konsepsiyasining bugungi kun mohiyatini anglagan holda "O'zbekiston ijtimoiy davlat sari" mavzusi ilmiy jihatdan yoritish. Bu orqali fuqarolari uchun xavfsiz muhitni yaratish, qashshoqlikka, tengsizlikka va ijtimoiy chetlanishga qarshi kurashishda ijtimoiy davlat tamoyilining ahamiyatini o'rganish, rivojlangan ijtimoiy davlat modellari bilan taqqoslash, hamda uning kelajakdagi holatini bashorat qilish imkoniyatlarini amaliyotiga joriy etishga erishishimiz mumkin.


Ijtimoiy davlat tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, ilmiy jihatdan Ijtimoiy davlat (nemischa: Sozialstaat) davlatning boshqaruv modeli bo'lib, undagi mavjud siyosatga ko'ra, har bir fuqaroning munosib turmush darajasi va sifatiga erishishi, ijtimoiy farqlar va muhtojlarga yordam berishi uchun ijtimoiy adolat tamoyillariga muvofiq moddiy ne'matlar, daromadlar va boyliklarni qayta taqsimlanadi.[1]. Qisqacha qilib aytadigan bo'lsak, ijtimoiy davlat bu fuqarolarning barcha huquq va

erkinliklari ta'minlangan, davlat boshqaruvida jamiyat birlashmalarining o'rni sezilarli ravishda oshgan va umuman olganda davlatda **jamiyat davlat uchun emas balki davlat jamiyat, xalq uchun** prinsipi ustuvor bo'lgan davlat ijtimoiy davlat sifatida ko'z oldimizda gavdalanadi. Ijtimoiy davlat nazariyasi ham motiv sifatida olingan maqsad va vazifalardan kelib chiqib bir qancha shaklga ega. Bunga sinfiy-analitik, liberal va Neo-Weber ijtimoiy davlat nazariyalari misol bo'la oladi. Sinfiy-analitik ijtimoiy davlat nazariyasi. Bu yondashuv davlatni shakllantirishda sinfiy qarama-qarshilik va iqtisodiy manfaatlarining ro'liga e'tibor qaratadi. Unda davlat betaraf hakam emas, balki hukmron sinfning quyi sinflarni ekspluatatsiya qilish va zulm qilish quroli ekanligi ta'kidlanadi. Liberal ijtimoiy davlat nazariyasi: Bu yondashuvga ko'ra davlat fuqarolarning huquqlari, erkinliklarining kafolati bo'lishi kerak deb hisoblaydi. Bu nazariyaga ko'ra, davlat o'z vakolatlarining bir qismini saqlagan holatda oqilona yondashuv va shaxslar o'rtasidagi ijtimoiy shartnoma bilan mustahkamlaydi. Neo-Weber ijtimoiy davlat nazariyasi: Bu yondashuv davlatning byurokratik va ma'muriy jihatlariga qaratilgan. U Weberning ratsional-huquqiy hokimiyat kontseptsiyasiga va uning siyosiy rejimlar tipologiyasiga asoslanadi. Unda davlat o'z manfaatlarini, mantiqiylik va muxtoriyatiga ega bo'lgan murakkab tashkilot sifatida tahlil qilinadi. Davlat tartib va qonuniylik manbai sifatida qaraladi[2]. Ijtimoiy davlatlarning shakllanishi esa uzoq tarixga ega va ularning asoslari 1880-yillarda G'arbiy Yevropada shakllana boshlaydi. Albatta o'sha paytgacha ham demokratik qadriyatlar, inson erkinligi, uning daxlsiz huquqlari haqidagi qarashlar jamiyatda shakllanib ham bo'lgan edi, lekin aynan o'sha davrdan boshlab ijtimoiy hayotda jonlanish paydo bo'la boshlaydi. Biz buni o'sha davrdan boshlab Yevropa davlatlarida hozirgi ijtimoiy nafaqaga o'xshagan pensiyaning joriy etilishi, kasaba uyushmalarining keng yoyilishi, 1889- yilda "II Internatsionale"ning tuzilishi hamda Angliyada Kasaba uyushmalari (Tredyunion)ning partiya sifatida shakllanishida ko'rishimiz va yana bir bor bunga amin bo'lishimiz mumkin. Ijtimoiy davlatning keying taraqqiyotida esa bo'lajak 2 ta jahon urushlari va 1930-yillarda jahon iqtisodiyotini titratgan "Buyuk Depressiya" juda katta o'rin egalladi. Iqtisodiyotning industrialashuvi va oddiy ishchilar huquqlari uchun kurash bu davrda ijtimoiy jarayonlarning harakatlantiruvchi kuchi bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki o'sha davr ijtimoiy islohotlarining katta qismi aholining ploretariat qismining turmush sharoitlarini va huquqlarini yaxshilash maqsadida amalga oshirilgin islohotlar tashkil etar edi. Ijtimoiy davlat shakllari ham har bir insonning o'z fikrlaridan kelib chiqib universal yoki tanlab, yani hammani birdek yoki eng muhtojlarni topib qamrab olinadigan qoidalarga asoslanadi deb qaraladi. Misol uchun daniyalik sotsiolog Gosta Esping-Andersen o'zining 1990-yil chop etilgan "Farovonlik kapitalizmining uch dunyosi" asarida ijtimoiy davlatning 3 kichik turini, yani liberal, sotsial-demokratik va konservativ tiplarini ta'riflab o'tadi va ularga misol qilib Amerika Qo'shma Shtatlari, Shvetsiya va Germaniyani misol qilib keltiradi. Esping-Anderson nazariyasiga ko'ra ijtimoiy davlat 3 ta jihatga: 1) Davlat va bozor o'rtasidagi munosabatlar, 2) jamiyatdagi tabaqalanish va ijtimoiy jamiyatdagi munosabatlar, 3) fuqarolarning ijtimoiy huquqlariga, ko'ra yuqoridagi 3 subturga bo'linadi. Esping-Anderson ta'kidlashiga ko'ra ijtimoiy davlat tizimi mamlakatning postindustrial jamiyatga aylanishiga, ishchi o'rinlarini ko'payishiga va umuman iqtisodiyotning rivojlanishiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Evelin Xuber va Jon Stivensning fikriga ko'ra, turli xil ijtimoiy davlatlar turli partiyalar tomonidan uzoq davom etgan hukumat natijasida paydo bo'lgan. Ular ijtimoiy-demokratik farovonlik davlatlari, xristian-demokratik farovonlik davlatlari va "ish haqi oluvchi" davlatlarni farqlaydilar.[3].

Amerikalik siyosatshunos Benjamin Radkliff, shuningdek, ijtimoiy davlatning universalligi va saxiyiligi (ya'ni dekommodifikatsiya darajasi) inson hayoti sifatiga ta'sir qiluvchi yagona eng muhim ijtimoiy darajadagi tarkibiy omil ekanligini sanoat demokratiyalari hamda Amerika shtatlaridan yig'ilgan ma'lumotga asoslanib aytib o'tadi. Uning ta'kidlashicha, ijtimoiy tabaqadan qat'i nazar, ijtimoiy davlat hamma uchun hayotni yaxshilaydi (xuddi shunga o'xshash institutlar, masalan, mehnat bozori qoidalari va kuchli kasaba uyushmalari uchun ham)[4]. Albatta, yuqorida ta'kidlab o'tilgan fikrlar o'z tasdiqlariga ega, chunki shubhasiz ijtimoiy davlatning eng yaxshi jihatlaridan biri bu o'rta qatlam sektorining kattaligi va ularning o'rtacha daromadlari bilan boy qatlam o'rtacha daromadlari orasida katta farqlarning bo'lmasligi. Bu esa siyosiy tizimning farovonligini mustahkamlaydi. Negaki, har qanday davlatni misol qilib oladigan bo'lsak, davlat ichki siyosatining to'g'ri qo'yilganligini va

boshqarilayotganligi bilish uchun o'rtqa qatlamning qanchalik katta ekanligini hamda turmushining to'kislik darajasini bilishning o'zi yetarli bo'ladi. Gendar masalalari ham ijtimoiy davlat qurishda actual o'rniga va busiz ijtimoiy davlatni to'liq tasavvur qila olmaymiz. Ayollarning ishchi bozorida tutgan o'rinning oshib borishi va uy xo'jaliklari daromadlarining ko'payishida ularning ham o'rni ko'tarila borishi natijasida jamiyatda ularning huquqlarini himoya qilish, teng imkoniyatlar va erkinliklar yaratishni maqsad qilgan harakatlar boshlanadi.

Ijtimoiy davlat qurilishini demokratik qadriyatlarga ega bo'lgan davlatlar misolida o'rganish bizga mavzuning mohiyatiga chuqurroq yetib borishga yordam beradi. Amerika Qo'shma Shtatlari esa bunga yorqin misol bo'ladi. Chunki AQSH har yili o'zining ijtimoiy xavfsizlik tizimiga (Social Security) juda ahamiyat qaratadi. Qo'shma Shtatlar federal va davlat ijtimoiy dasturlariga, jumladan, naqd pul yordami, tibbiy sug'urta, oziq-ovqat yordami, uy-joy subsidiyalari, energiya va kommunal xizmatlar, ta'lim va bolalar parvarishi uchun yordam uchun yiliga taxminan 2,3 trillion dollar sarflaydi. Shunga o'xshash imtiyozlar ba'zan xususiy sektor tomonidan yoki siyosiy vakolatlar orqali yoki ixtiyoriy asosda taqdim etiladi. Ish beruvchi homiyligidagi tibbiy sug'urta bunga misol bo'la oladi.



[5]

Bundan tashqari AQSH dagi Ijtimoiy Xavfsizlik federatsiyasi ham bu sohada birinchilardan bo'lib asos solingan tashkilot hisoblanadi, negaki bu tashkilot 1935 -yildan ya'ni "Ijtimoiy xavfsizlik to'g'risidagi akt" qabul qilingan davrdan boshlab o'z faoliyat sohasiga jiddiy kirishadi. Agar AQSH ijtimoiy davlati rivojiga chuqur nazar tashlasak, uning XX asr davomida juda katta yo'lni bosib o'tganligining guvohi bo'lamiz. AQSH ijtimoiy davlatini ikkita katta bo'limdan iborat deb hisoblashadi va bular: Public welfare state division hamda Private welfare state kabilarni o'z ichiga oladi. O'z navbatida ular ham kichkina bo'limlarga bo'linadi. Misol uchun ijtimoiy yordam, ijtimoiy sug'urta tizimi va soliq tizimi Public welfare state tarkibidagi bo'limlar hisoblanadi. Ijtimoiy yordam tizimining asoslari XVII asrda joriy qilingan Qirolicha Elizabettaning kambag'allar to'g'risidagi qonuniga borib taqaladi. XX asrning boshlarida AQSH ijtimoiy yordam tizimida bir qancha programmalar, ya'ni dasturlardan foydalanishadi. Masalan, o'sha davrda bevalar uchun moddiy yordam puli joriy qilinadi va loyiq deb topilganlarga mana shu dastur doirasida yordam bera boshlashadi. Lekin shuni ham aytib o'tish joyizki o'sha davrda bunday dasturlar ijrosini ta'minlash oson bo'lmagan, chunki har bir federal shtatning o'ziga xos boshqaruv tizimiga va iqtisodiy strukturaga egaligi bu vazifani qiyinlashtirgan. Ikkinchi katta bo'lim esa private welfare state (xususiy ijtimoiy farovonlik) deb ataladi. Yani Amerikada ishchilar manfaatlarini himoya qilish uchun, ularga tibbiy sug'urta (health insurance), va nafaqa to'lanishini

kafolatlash uchun maxsus tartib o‘rnatilgan va bu ko‘pincha xususiy korxonalar va tashkilotlarga tegishli hisoblanadi. Xususiy sektordagi har bir ish beruvchi o‘z ishchilarini yuqoridagi ijtimoiy qulayliklar bilan ta‘minlashi shart hisoblanadi va buning ijrosini federal hokimiyatlarning o‘zi nazorat qiladi. Albatta, bularning barchasi farovon davlat barpo qilishda muhim ahamiyat kasb qiladi.

Xulosa, o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki har bir jamiyatdagi ijtimoiylashuv va farovon jamiyatning shakllanishida davlat tomonidan olib boriladigan ijtimoiy dasturlar hamda xususiy sektorda ijtimoiy qonunlar, fuqarolarning huquqlarining ishlashi asosiy o‘rin tutadi. Shu o‘rinda mamlakatlardagi iqtisodiy farovonlik va ma‘naviy-madaniy yuksaklikni ha unitmaslik kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Sotsial_davlat
2. JTIMOIY DAVLAT NAZARIYALARI
3. Anarbaev Jakhongir Batir o‘g‘li
4. JDPU
5. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10827398>
6. JTIMOIY DAVLAT NAZARIYALARI
7. Anarbaev Jakhongir Batir o‘g‘li
8. JDPU
9. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10827398>
10. https://en.m.wikipedia.org/wiki/Social_programs_in_the_United_States#/media/File%3AWelfare_in_America.png
11. Hendren, Nathaniel; Sprung-Keyser, Ben (2020). "A Unified Welfare Analysis of Government Policies". *The Quarterly Journal of Economics*. 135 (3): 1209–1318. doi:10.1093/qje/qjaa006.